UZINFOCOM

SINGLE INTEGRATOR FOR THE CREATION AND SUPPORT
OF STATE INFORMATION SYSTEMS

# ESG hisoboti

2025 yilning birinchi yarmi

# Kompaniya haqida

UZINFOCOM
SINGLE INTEGRATOR FOR THE CREATION AND SUPPORT OF STATE INFORMATION SYSTEMS

**Yagona integrator UZINFOCOM**
Raqamli texnologiyalar vazirligi tarkibiga kiradi.

**Faoliyat sohasi:**
UZINFOCOM biznes jarayonlarni raqamlashtirish va uning operatsion samaradorligini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda dasturiy ta'minot va korporativ axborot tizimlarini ishlab chiqish bo‘yicha to‘liq xizmatlar kompleksini taqdim etishga ixtisoslashgan.

**Kompaniyaning asosiy faoliyat yo‘nalishlari tarmoqlar bo‘yicha:**
Davlat sektori, moliyaviy-bank sektori, yoqilg‘i-energetika kompleksi, transport va logistika, telekommunikatsiya, sanoat, qurilish, xizmatlar (retail, ko‘chmas mulk va boshqalar).

**2025-yil fevral oyida UZINFOCOMning ESG va barqaror rivojlanish sohasida korporativ siyosati qabul qilingan.**



Barqaror rivojlanish - bu bizning kelajakka sarmoyamiz bo‘lib, unda muvaffaqiyat nafaqat raqamlar bilan, balki keyingi avlodlar uchun meros bilan ham o‘lchanadi.

**GIMRANOV EMIL ILDAROVICH**
Bosh Direktor

**1000+**
QO'LLAB-QUVVATLANGAN LOYIHALAR

**23+**
YILLIK IT BOZORIDAGI TAJRIBA

**900+**
IT MUTAXASSISLAR JAMOASI

**6**
O‘ZBEKISTON BO‘YLAB OFISLAR

**2**
XALQARO OFISLAR

# Sayyoraga g‘amxo‘rlik

ESG

## Toza energiya

UZINFOCOM respublikada faoliyat yuritadi va shu o‘rinda beshta zamonaviy hududiy ofisni boshqaradi:

- Ikki ofis Toshkentda joylashgan.
- Bittadan ofis Urganchda, Farg‘onada va Qoraqalpog‘iston Respublikasida joylashgan.

**UZINFOCOMning barcha ofislari tomonidan umumiy elektr energiyasi iste’molining toza energiya ulushi**

**≈ 10%**

## IT Village

Bu 2022 yilda UZINFOCOM ko‘magi bilan tashkil etilgan, respublikaning olis hududlaridagi bolalarga sifatli ta’lim berishga qaratilgan noyob loyiha.

Ushbu ta’lim markazi Samarqandda joylashgan.




**IT Village qurilishida dengiz konteynerlaridan foydalanilgan.**

IT Village

**100%**

Qayta tiklanuvchi energiya bilan ishlaydi, bu energiya quyosh panellaridan olinadi

ESG

## Yashil kelajak

UZINFOCOM respublika hududlarini ko‘kalamzorlashtirishga ham o‘z hissasini qo‘shmoqda.

2025 yilning birinchi yarmi davomida Bo‘stonliq tumanida UZINFOCOM jamoasi tomonidan
**2000 dan ortiq mevali daraxtlar ekildi**

### Plogging

Kompaniyaning 50 nafar xodimi ishtirok etdi.

Bajarilgan ishlar:

- Maishiy chiqindilardan hudud tozalandi.
- Daraxt ekish uchun tuproq oldindan tayyorlandi.
- Ekinlarga keyingi parvarish uchun hudud obodonlashtirildi.

## Suv ta’minoti hisobi va elektron hujjatlashtirish

UZINFOCOM Suv xo‘jaligi vazirligi bilan hamkorlikda butun respublikasi bo‘ylab “Suv Hisobi” axborot tizimini ishlab chiqdi va ishga tushirdi.

Ushbu tizim suv ta’minoti bo‘yicha shartnomalar va suvga bo‘lgan arizalarni tuzish, suv iste’molchilari uchun suv hisobini va hisobotini yuritish, shuningdek, ular haqida ma’lumotlar bazasini shakllantirish uchun mo‘ljallangan.

Qishloq xo‘jaligida, shu jumladan baliqchilik xo‘jaliklarida suv resurslaridan foydalanish bo‘yicha soliq hisobotlari “Suv Hisobi” axborot tizimi va ushbu sohada vakolatli organlar ma’lumotlari asosida avtomatik ravishda shakllantiriladi.

ESG

**Tizim suv foydalanuvchilarni hisobga olish va nazorat qilishda shaffoflik va tezkorlikni oshirishni ta’minlaydi, shu bilan birga qog‘oz iste’molini kamaytiradi.**

**Suv Hisobi**
suvhisobi.uz

Bundan tashqari, UZINFOCOM **Elektron hujjat aylanishi tizimidan (EHA) faol foydalanadi,** bu esa qog‘oz sarfini kamaytiradi.

EHA orqali hujjatlarning **95% dan ortig‘i aylanadi**

# Ijtimoiy mas’uliyat

## Xodimlar farovonligiga g‘amxo‘rlik

ESG

2025 yilda UZINFOCOM kompaniyasi barcha xodimlar uchun qo‘llab-quvvatlovchi va inklyuziv ish muhitini yaratib, mehnat qonunchiligining yuqori standartlariga sodiqligini namoyish etishda davom etmoqda.

### Mehnat qonunchiligiga rioya qilish

Kompaniya mehnat qonunchiligining qoidalariga qat’iy rioya qiladi, bu esa ish va oilaviy hayot o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlaydi, va shu bilan quyidagilarni kafolatlaydi:

- Adolatli mehnat sharoitlari
- O‘z vaqtida ish haqi to‘lash
- Xodimlarning barcha huquqlariga rioya qilish
- Haq to‘lanadigan homiladorlik ta’tili berish
- Moddiy yordam ko‘rsatish (vafot, nikoh, bola tug‘ilishi munosabati bilan)

ESG

### Kasaba uyushmasi bilan hamkorlik

Kasaba uyushmasi bilan faol hamkorlik ijobiy korporativ madaniyatni shakllantirishga yordam beradi. Kasaba uyushmasi turli xil tadbirlarni tashkil qiladi, masalan:

- Jamoa qurish (team-building) tadbirlari
- Sport tadbirlari
- Bayramona tadbirlar
- Xodimlarning farzandlariga bayramlarda sovg‘alar

### UZINFOCOMda ishlash bo‘yicha xodimlar so‘rovnomasi natijalari

**>85%** Ishdan mamnun

**>65%** O‘sish imkoniyatlarini ko‘radi

**>85%** O‘zlarini jamoaning bir qismi sifatida his qilishadi

**>80%** Texnik ta’minotdan mamnun

### Xizmatlarini e’tirof etish va motivatsiya

Kompaniya xodimlarning muvaffaqiyatlarini rag‘batlantiradi va ularga quyidagi hollarda mukofotlar taqdim etadi:

- Professional yutuqlar uchun
- Bayram kunlari munosabati bilan

Bu amaliyot motivatsiyani oshiradi va jamoaning har bir a’zosining hissasini e’tirof etadi.

### Barqarorlik va xilma-xillik

UZINFOCOM kadrlarning kam qo‘nimsizligini qo‘llab-quvvatlaydi, bu xodimlarning yuqori darajadagi qoniqishlari va ish muhitining barqarorligidan dalolat beradi.

Kompaniya gender tengligi va inklyuzivlikka intiladi, jamoada ayollar ulushini oshirish ustida ishlaydi, hozirgi xodimlar nisbati quyidagicha

**85%** Erkaklar

**15%** Ayollar

**1,4%** Kadrlar qo‘nimsizligi

# Ijtimoiy mas’uliyat

ESG

## Xodimlar malakasini oshirish

2025 yilda UZINFOCOM xodimlarning professional o‘sishini faxr bilan qo‘llab-quvvatlaydi va ularga turli xil ta’lim imkoniyatlarini taqdim etadi.

| Coursera Platformasi | Magistratura | Ta’lim kurslari |
|---|---|---|
| 201 | 10 | 7 |
| Nafar xodim | Nafar xodim | Nafar xodim |

## Amaliyot

2025 yilda UZINFOCOM Backend, Frontend, QA, HR, Analitika va boshqa yo‘nalishlar bo‘yicha amaliyot va stajirovkalar o‘tkazdi, bu esa stajyorlarning professional ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi.

Jalb qilinganlar:

**43**
Kishi




## TOPlardan master-klasslar

Yilning birinchi yarmida UZINFOCOM direktorlari tomonidan **3 ta master-klass** o‘tkazildi.

Quyidagi mavzular yoritildi:

- Loyihani boshqarishda jamoa shakllantirish: rollar va vazifalar
- Boshqaruv vositalari
- Loyihalarni boshqarish asoslari va boshqaruvning kundalik hayotdagi qo‘llanilishi



ESG

## Oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik

UZINFOCOM va **Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti** (TATU) talabalar malakasini oshirishga qaratilgan dual ta’lim tizimi doirasida hamkorlik memorandumini imzoladi.

Memorandum quyidagilarni nazarda tutadi:

- UZINFOCOM kompaniyasida talabalar uchun amaliyot tashkil etish;
- O‘qituvchilarning malakasini oshirish uchun amaliy tajriba berish;
- Korxona hududida universitet kafedrasini ochish;
- Talabalarga real ish tajribasini berish maqsadida amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish.

**Shuningdek, UZINFOCOM IDU (International Digital University) bilan hamkorlik memorandumi imzoladi.**

Ushbu kelishuv IDU talabalari va bitiruvchilari uchun o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ish topish va amaliy tajriba orttirish imkoniyatlarini ochadi.





# Ijtimoiy mas'uliyat

## Ta'lim loyihalari

ESG

### Ustudy

UZINFOCOM tomonidan amalga oshirilayotgan, IT-mutaxassislarini tayyorlashga qaratilgan loyiha. Bu yerda taklif etiladigan ta'lim xizmatlari: amaliy ta'lim, individual ta'lim dasturlari va mentorlik yordami.

Ta'lim yo'nalishlari:

- **Backend и Frontend** dasturlash
- **Kiberxavfsizlik**
- **Motion & Graphic** dizayn

| | | | |
|---|---|---|---|
| **246** | **79** | **14** | **2** |
| 2025 yil birinchi yarmidagi talabalar | 2025 yil birinchi yarmidagi bitiruvchilar | Ulardan amaliyotdan o'tayotganlar | Ishga joylashganlar |

### IT Village

Mamlakatning olis hududlaridagi 1-8 sinf o'quvchilari uchun quyidagi yo'nalishlar bo'yicha bepul ta'limni taklif qiladi:

- **Ingliz tili**
- **Dasturlash**
- **Robototexnika**

Bu loyiha yoshlarni IT sohasiga jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratadi.

**2025 yilda ta'lim oluvchilar**

**150** bolalar

ESG

### ZiyoNET

UZINFOCOM loyihasi, respublikada ta'lim va madaniy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash uchun ko'plab resurslar va loyihalarni birlashtiruvchi keng qamrovli ta'lim platformasi.

| | |
|---|---|
| **47 955** Umumiy foydalanuvchilar soni | **119 647** Ta'lim resurslari |
| **5 455** Ta'lim saytlari | **8 274** Audiokitoblar |

# Ijtimoiy mas'uliyat

ESG

## ODAMLAR HAQIDA G'AMXO'RLIK

ESG

DMED

DMED - UZINFOCOM tomonidan ishlab chiqilgan yagona tibbiy tizim bo'lib, respublika sog'liqni saqlash sohasida raqamli texnologiyalarni faol joriy etmoqda. DMED onlayn uchrashuvlarni rejalashtirish, teletibbiyot bo'yicha maslahatlar, elektron retseptlar va raqamli tibbiy kartalarni ta'minlaydi. Bu tibbiy xizmatlarning qulayligi va sifatini oshirish, shuningdek, bemorlarning faolligini yuksaltirish yo'lidagi muhim qadamdir.

**3 800 +**

Tizim Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi 3 800 dan ortiq tibbiy muassasalarda joriy etilgan.

**93 855 918**

Shakllantirilgan talonlarning umumiy soni:

**114 357**

Tizimda ro'yxatdan o'tgan shifokorlarning umumiy soni:
114 357 kishi.

**199**

Yunusobod tumanida tizim 199 ta dorixonada joriy etilgan.

**30 269 585 kishi**

Axborot tizimiga biriktirilganlar:

**15 063 984**
Erkaklar

**15 205 601**
Ayollar

UZINFOCOM yagona tibbiy axborot tizimi DMED asosida "Elektron retsept" modulini ishlab chiqdi.

Bundan tashqari, DMED tizimi asosida faqat retsept bo'yicha beriladigan dori vositalari uchun "Elektron retsept (qaytarish dasturi)" moduli ishlab chiqildi.

Mamlakat bo'ylab "Qaytarish dasturi"da ishtirok etuvchi 894 ta dorixona tizimga ulandi.

**307 631 retsept**

Axborot tizimida shakllantirilgan retseptlar soni:
307 631 ta retsept.

## MEHNATNI MUHOFAZA QILISH VA XAVFSIZLIK

2025 yilda UZINFOCOM xodimlar uchun xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratish ustida faol ish olib bormoqda.

### Ta'lim va ishtirok etish

- Har hafta yangi xodimlar va stajyorlar uchun mehnatni muhofaza qilish bo'yicha seminarlar va yo'riqnomalar o'tkaziladi.
- Xodimlar uchun "Xavfsizlik madaniyati: kelajak uchun birgalikda" seminari tashkil etildi.

### Oldini olish va nazorat

- Sanitariya-gigiyena normalariga rioya qilish va jarohatlanishning oldini olish bo'yicha muntazam tushuntirish ishlari olib borilmoqda.
- Ish joylarida mehnat sharoitlari va jarohat xavfi bo'yicha attestatsiya o'tkaziladi, shuningdek, ofislarning yong'in xavfsizligi tekshiruvlari amalga oshiriladi.

### Malaka oshirish

- Kompaniya haydovchilari Toshkent shahar IIB Yo'l harakati xavfsizligi xizmati tomonidan tashkil etilgan o'quv seminarlarida ishtirok etdi.
- 629 nafar xodim "Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish bo'yicha milliy o'quv platformasi"da o'qishni muvaffaqiyatli yakunlab, FVV Fuqaro muhofazasi institutidan guvohnomalar oldi.

### Favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik

- MChJ mutaxassislar, Respublika seysmoprognostik monitoring markazi va Raqamli texnologiyalar vazirligi ekspertlari ishtirokida xodimlar uchun "Zilzilalarga tayyorgarlik haftaligi" o'tkazildi.

# Ijtimoiy mas'uliyat



## KORPORATIV AYOLLAR TADBIRLARI

UZINFOCOM o'z jamoasining ayollar qismini mamnuniyat bilan qo'llab-quvvatlaydi va ularga sog'liq, ijodkorlik va jamoaviy ruhni mustahkamlashga qaratilgan noyob tadbirlarni taklif etadi. Ushbu tadbirlar tajriba almashish, dam olish va uyg'unlik uchun muhit yaratadi, shu bilan birga xodimlar o'rtasida birlik va qo'llab-quvvatlash ruhini mustahkamlaydi.

**2025 yilning birinchi yarmida UZINFOCOM kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan hamkorlikda ayollar jamoasi uchun quyidagi tadbirlarni tashkil etdi:**

- Kosmetolog bilan uchrashuv
- Yoga sessiyasi
- Bouling kechasi
- Sumalak party
- Endokrinolog bilan uchrashuv
- Psixolog bilan uchrashuv
- Art-terapiya
- Oshpazlik master-klasslari
- Piknik va netvorking
- Shashka bo'yicha turnir



**"Uzinfocom Women Club" doirasida ayol xodimlar uchun treninglar o'tkazildi, unda quyidagi mavzular yoritildi:**

- Moliyaviy savodxonlik
- Maqsad qo'yish
- Muloqot asoslari
- Vaqtni boshqarish
- Qaror qabul qilish
- Liderlik



## GENDER TENGLIGI VA RIVOJLANISH

**UZINFOCOM gender tengligi va IT sohasidagi innovatsiyalarni faol ravishda ilgari surmoqda.**

Strategik rivojlanish bo'yicha direktor Dildora Tursunova Toshkentda bo'lib o'tgan Xalqaro PLUS-forumda ma'ruzachi sifatida ishtirok etdi va "Women In Tech" panel muhokamasida qatnashdi. Unda ayollarning biznes transformatsiyasidagi roli va gender muvozanatining samaradorlikka ta'siri muhokama qilindi.





Shuningdek, u Raqamli texnologiyalar vazirligida bo'lib o'tgan GAP klubi uchrashuvida ishtirokchilarni ilhomlantirib, ayollarni IT sohasiga jalb qilishni qo'llab-quvvatladi.



Bundan tashqari, Dildora Tursunova Oliy biznes maktabining "Ayollar rahbarlar maktabi" dasturida 100 nafar ishtirokchiga UZINFOCOM loyihalari va texnologiyalar sohasida rivojlanish imkoniyatlari haqida ma'ruza o'qidi.

# Ijtimoiy mas’uliyat



## SOG‘LOM TANDA – SOG‘LOM RUH

**UZINFOCOM xodimlari World Athletics jahon musobaqalar taqvimiga kiritilgan VII Toshkent xalqaro marafonida ishtirok etdi.**

82 nafar UZINFOCOM xodimi dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan professional sportchilar va yugurish havaskorlari bilan 3 km, 10 km, yarim marafon va marafon masofalarida bellashdi.

**UZINFOCOM xodimlar o‘rtasida sog‘lom raqobat va faollik ruhida armrestling va turnikda tortinish bo‘yicha korporativ turnir o‘tkazdi.**

Ushbu tadbir jamoaning jismoniy holatini mustahkamladi, motivatsiyani oshirdi va hamkasblar o‘rtasida do‘stona aloqalarni rivojlantirishga xizmat qildi.




## UZINFOCOM CHESS CUP 2025

UZINFOCOM 2025 yilda UZINFOCOM CHESS CUP turnirini muvaffaqiyatli o‘tkazdi. Ushbu tadbir xodimlarni intellektual raqobat va jamoaviy hamkorlik ruhida birlashtirdi. Turnir strategik fikrlashni mustahkamladi va hamkasblar o‘rtasida do‘stona aloqalarni rivojlantirishga yordam berdi.






## MEHRIBONLIK AMALDA

35 nafar UZINFOCOM xodimi ajoyib g‘amxo‘rlik va hamjihatlik ko‘rsatib, qon donorlari bo‘ldi.

13 litr qon yig‘ilib, hayotni saqlash va mahalliy tibbiy muassasalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida tashkil etilgan aksiyada hissa qo‘shildi. Respublikada har kuni yuzlab bemorlar – bolalar, tug‘ruqdan o‘tgan ayollar va onkologik kasalliklarga chalingan odamlar qonga muhtoj.

Bu xayrli ish nafaqat jamoamizdagi o‘zaro yordam ruhini mustahkamlaydi, balki yangi ezgu ishlarga ilhom baxsh etadi.




## VATAN BO‘YLAB SAYOHAT

UZINFOCOM kasaba uyushmasi qo‘mitasi bilan hamkorlikda xodimlarning dunyoqarashini kengaytirish, dam olish kunlarida qiziqarli hordiq chiqarishni tashkil etish, ichki turizmni qo‘llab-quvvatlash va tarixiy merosimizni o‘rganish maqsadida Samarqandga navbatdagi ma’rifiy sayohatni uyushtirdi.





# Korporativ boshqaruv

ESG

## UZINFOCOM QADRIYATLAR

2025 yilda UZINFOCOM kompaniyasi o‘z faoliyatiga korporativ qadriyatlarni muvaffaqiyatli joriy etdi. Barcha xodimlar quyidagi qadriyatlarni joriy etish bo‘yicha treninglarda ishtirok etib, korporativ madaniyatni mustahkamladi:

- O'sish va o'rganishga intilish
- Yetakchilik (liderlik)
- Samimiylik
- E’tibor (reputasiya)
- Mas'uliyat
- Jamoaga sodiqlik

## SHAFFOFLIK

UZINFOCOM kompaniyasi o‘z faoliyatini davlat va jamiyat oldida ochiqlik bilan namoyish etmoqda. Kompaniyaning moliyaviy hisobotlari har bir kishi uchun UZINFOCOM rasmiy veb-saytida ochiq.

**425 mlrd so‘m**

≈ 33 mln AQSh dollari

UZINFOCOMning 2024 yildagi daromadi:

## AXBOROT VA KIBERXAVFSIZLIK

ESG

UZSOC
security operation center

UZSOC - UZINFOCOM va Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan amalga oshirilayotgan innovatsion loyiha bo‘lib, davlat va soha muhim infratuzilmalari uchun kiberxavfsizlikni ta’minlashga qaratilga.

UZSOC Raqamli texnologiyalar vazirligiga qarashli tashkilotlarning axborot infratuzilmasini o‘sib borayotgan kiberxavflardan ishonchli himoya qiladi, insidentlarga monitoring va tezkor javob berishning samarali tizimini yaratadi, shuningdek, kiberxavfsizlik sohasida milliy tajribani rivojlantiradi.



UZSOC Kaspersky laboratoriyasi bilan hamkorlikda UZINFOCOM bo‘lim boshliqlari va rahbarlari uchun kiberxavfsizlik bo‘yicha (KIPS) trening o‘tkazdi.



UZINFOCOM “ONESEC” bilan birgalikda axborot xavfsizligi bo‘yicha xizmatlar doirasida “O‘zsanoatqurilishbank” AKBda axborot xavfsizligining dolzarb masalalariga bag‘ishlangan seminarlar o‘tkazdi.

# Korporativ boshqaruv

ESG

## DAVLAT XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH

ESG

my.gov.uz

my.gov.uz - UZINFOCOM tomonidan ishlab chiqilgan respublikasining Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali bo‘lib, mobil ilovada 500 dan ortiq xizmat va asosiy veb-portalda 750 dan ortiq xizmatni taklif etadi, jumladan, onlayn to‘lovlar, hujjat topshirish va axborot so‘rovlari.

Ushbu portal haydovchilik guvohnomalari va diplomlar kabi asosiy hujjatlarga kirishni soddalashtiradi, fuqarolar va davlat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning qulayligi, shaffofligi va samaradorligini oshiradi.

**11 096 756**
Foydalanuvchilar (jami)

**17 275 059**
2025 yilda jismoniy shaxslardan kelgan arizalar

**284 182**
Yuridik shaxslar

**520 342**
2025 yilda yuridik shaxslardan kelgan arizalar



## RAHBARIYAT BILAN OCHIQ MULOQOT

ESG

2025 yilda UZINFOCOMda rahbariyat va barcha bo‘limlar xodimlari ishtirokida Ochiq muloqot tadbiri bo‘lib o‘tdi.

Tadbir konstruktiv va do‘stona muhitda o‘tkazilib, ishtirokchilarga joriy yutuqlar, rivojlanish rejalari va ish jarayonlarini optimallashtirish masalalarini muhokama qilish imkonini berdi. Kompaniya rahbariyati barcha savol va takliflarni diqqat bilan tinglab, batafsil javoblar va tushuntirishlar berdi.

Bunday uchrashuvlar kompaniyamizning korporativ madaniyatining muhim qismiga aylanib, ochiq muloqotni rivojlantirish, xodimlarning motivatsiyasini oshirish va jamoaviy ruhni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

## KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH

UZINFOCOM o‘z faoliyatida shaffoflik va axloqiylikni ta’minlaydi, korruptsiyaga qarshi qonunchiligiga qat’iy rioya qiladi.

UZINFOCOM jamoasi O‘zbekistonda o‘tkazilgan korruptsiyaga qarshi hakatonda g‘olib bo‘ldi va 2025 yil sentyabr oyida Gonkongda bo‘lib o‘tadigan “Coding4Integrity” xalqaro hakatonida respublikani vakillik qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Jamoaning davlat xaridlari sohasida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olishga qaratilgan blokcheyn asosidagi yechimi o‘zining texnologik jihati va amaliy qo‘llanilishi uchun hakamlar hay’ati tomonidan yuqori baholandi.

